



O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik.

O'zbekiston tarixi fani o'qituvchisi

Islomova S.



O'TILGAN DARSNI MUSTAHKAMLASH



TIAME

- ▶ IQTISODIYOTNI MODERINIZATSIYALASH DEGANDA NIMANI TUSHUNASIZ
- ▶ SOLIQ TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR NIMALARDAN IBORAT
- ▶ ERKIN VA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR AHAMIYATI



Millatlararo totuvlik g'oyasi

- ▶ O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 4-moddasida qayd etilganidek, "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi"





Millatlararo totuvlik g'oyasi



- ▶ Millatlararo totuvlik g'oyasi – umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir





Millatlararo totuvlik g'oyasi



- ▶ Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 130 millat, elat, xalq va etnik guruhlarining vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy madaniy urfodatlari, an'analari, tiliga, konstitusiyaviy huquqiy tenglikka ega. O'zbekistonda bugungi kunda 130 dan ortiq milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Shu yo'nalishda markazlar tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda. O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlat qonuni bilan mustahkamlangan. Buning ijobati maktablarimizda 9 ta milliy tilda o'qitish ishari, 20 tilda ommaviy axborot nashrlari faoliyat ko'rsatayotganligida ko'rinmoqda



Milliy-madaniy markazlar.



- ▶ 1992 yil 10 ta
- ▶ 1995 yil 72 ta
- ▶ 2003 yil 135 ta
- ▶ 2020 yil 138 ta





Baynalmilal madaniyat markazi



TIAME

- ▶ 1992 yil 13 yanvar – Toshkentda Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil qilindi.
- ▶ Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining totuvligi va hamkorligini ta’minlash, ularning o‘ziga xos madaniyatlari va ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko‘maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi.





Baynalmilal madaniyat markazi



TIAME

- ▶ Markazning asosiy vazifasi millatlararo totuvlik prinsiplari qaror topishiga yo'naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag'batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish; O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlar va rasm-rusumlarini tiklash va rivojlantirish; madaniyat markazlariga amaliy va metodik yordam ko'rsatish; jamoat tashkilotlariga millatlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha maslahatlar berish, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish; millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda tashkiliy, huquqiy, metodik yordam ko'rsatish, konferensiyalar, seminarlar va «davra suhbatlari» tashkil etish; har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan teleradio ko'rsatuvlar va eshittirishlar tayyorlashda, kitoblar, risolalar, ma'lumotnomalar, prospektlar, bukletlar va bosma mahsulotlarning boshqa turlarini tayyorlashda qatnashishdan iborat.



O'zbekiston Respublikasi milliy bayramlari

- ▶ 1 yanvar - Yangi yil
- ▶ **14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni**
- ▶ Mustaqil O'zbekistonda ushbu bayram o'z qurollantirish kuchlarni tashkil etishga bag'ishlangan. 1992 yil 14 yanvarda mamlakat parlamenti mamlakat hududidagi harbiy o'quv yurtlar va boshqa harbiy shakllarining barcha qismlari va birlashmalarini O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiya qaramog'iga o'tishi to'g'risida qarori qabul qilindi. Shunday qilib xususiy qurollantirish kuchlari tashkil etildi. 1993 yilda 29 dekabrda 14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni deb e'lon qilindi



O‘zbekiston Respublikasi milliy bayramlari



- ▶ 8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni
- ▶ 21 Mart - Navro‘z
- ▶ 9 may - Xotira va qadrlash kuni
- ▶ 1 sentyabr - Mustaqillik kuni
- ▶ 1 oktyabr - Ustoz va murabbiylar kuni
- ▶ 8 dekabr - Konstitutsiya kuni
- ▶ Ramazon oyidan so‘ng nishonlanadigan Iyd al Fitr (Ramazon Hayiti) va Hajdan so‘ng nishonlanadigan Iyd al Adxa (Qurbon Hayiti) bayramlari ham milliy bayramlar hisoblanadi, biroq ushbu bayramlar nishonlanadigan kunlar Hijriy kalendarga muvofiq har yili o‘zgarib turadi



UYGA VAZIFA



- ▶ **MILLIY MADANIY MARKAZLAR KECHA VA BUGUN MAVZUSIDA TEZIS TAYYORKASH**
- ▶ **(MAVZU DOIRASIDA O'ZBEKISTONDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATI BILAN TANISHISH)**